

PROVENANSNING ART BOZORDAGI ROLI: TARIXIY, XUQUQIY VA TEXNOLOGIK JIHATLAR



Baxrom Ochilovich Adimurodov

Ijtimoiy fanlar va informatika kafedrasi o‘qituvchisi
K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

Umida G‘ulomovna Zunnunova

Ijtimoiy fanlar va informatika kafedrasi professori
K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-03-02>

Annotatsiya: Mazkur maqolanda san’at asarlarining kelib chiqish tarixi – provenans masalasi yoritilgan bo‘lib, u global art bozordagi xuquqiy, moliyaviy va tarixiy jihatlari bilan birga tahlil qilinadi. Provenans ma’lumotlari san’at asarining haqiqiyligini tasdiqlash, qiymatini belgilash va mulkchilik huquqlarini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotda ilmiy manbalar, arxivlar va zamonaviy texnologiyalarning (AI, blokcheyn) provenans izlanishlariga qo‘shayotgan hissasi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: provenans, badiiy autentifikatsiya, provenans tarixi, provenans tadqiqotlari, raqamli ma’lumotlar bazasi.

Аннотация: В условиях глобального художественного рынка провенанс становится ключевым элементом в установлении подлинности, юридической чистоты и рыночной стоимости произведений искусства. Источники и методы его исследования включают архивные документы, каталоги, страховые и таможенные записи, а также современные цифровые базы данных. Новейшие технологии, такие как блокчейн и искусственный интеллект, открывают новые возможности для верификации провенанса и повышения прозрачности арт-рынка.

Ключевые слова: провенанс, аутентификация произведений искусства, история провенанса, исследование происхождения, цифровые базы данных.

Abstract: In the context of the global art market, provenance has become a key factor in determining the authenticity, legal clarity, and market value of artworks. Provenance refers to the history of ownership and movement of an object, which is essential for experts, collectors, and museums. The sources and methods of provenance research include archival records, catalogues, insurance and customs documents, as well as modern digital databases. Emerging technologies such as blockchain and artificial intelligence offer new possibilities for verifying provenance and enhancing transparency in the art market.

Keywords: provenance, art authentication, ownership history, provenance research, digital databases.

Xalqaro san’at bozorida har yili milliardlab dollar miqdoridagi asarlar savdoga qo‘yilishini hisobga olsak, provenans (asarning kelib chiqishi tarixi) masalasiga bo‘lgan tobora ortib borayotgan e’tibor tabiiy holatdir. Unda, provenans nima va nega u san’at bilan shug‘ullanuvchi dilerlar, kolleksionerlar, tadqiqotchilar hamda boshqa mutaxassislar uchun shunchalik muhim?

“Provenans” atamasi fransuz tilidagi provenir – “kelib chiqmoq” so‘zidan olingan bo‘lib, u tasviriy san’at, amaliy bezak san’ati yoki antik buyumlar kabi asarlarning mulkchilik tarixini bildiradi. Xaridor uchun noma’lum yoki shubhali provenans – aynan shubhali mulkchilik huquqi bilan bir xil xavfga ega. Asarning to‘liq hujjatlashtirilgan provenansi uning yaratilgan sanasi, joyi va ilgari kimlar egalik qilganini ko‘rsatib, xaridorgacha bo‘lgan yo‘lini aniq belgilaydi. Albatta, miloddan avvalgi davrga oid asarlarning provenansi zamonaviy asarlarnikiga qaraganda kamroq hujjatlashtirilgan bo‘lishi mumkin.

Agar san'at asari obro'li diler, mashhur auktsion uyi yoki tanilgan kolleksionerdan olingen bo'lsa, bu xaridorga ma'lum darajada ishonch beradi. Biroq bu kafolat faqatgina provenans to'g'risidagi hujjatlar mavjud bo'lsa amal qiladi. Afsuski, bunday hujjatlar har doim ham mavjud emas. Ba'zi asarlar yillar, ba'zida esa asrlar davomida noma'lum shaxslarda yoki omborxonalarda saqlanib kelgan bo'lishi mumkin.

Ba'zan asar ustidan mulkchilik huquqi bo'yicha tortishuvlar sudgacha yetib boradi. Bunday holatda, asarning provenansini aniqlash uchun amalga oshirilgan harakatlarni hujjatlashtirgan kolleksioner – u shaxsiy shaxs bo'ladimi yoki muassasa – yuridik ustunlikka ega bo'ladi. Ayniqsa juda qimmatbaho asar haqida gap ketganda, professional mutaxassis yollab, asarning kelib chiqish tarixini o'rganish ko'p hollarda eng to'g'ri investitsiya bo'lishi mumkin. Bunday tadqiqot sud jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Provenans san'at asarining bozor qiymatiga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida so'nggi o'n yilliklarda o'tkazilgan mashhur auktsionlarda ko'plab misollarni ko'rish mumkin. Asarning mashhur kolleksiyaga mansubligi, uning qiymatini sezilarli darajada oshiradi.

Masalan, 2011 yilda Christie's auktsionida bo'lib o'tgan "Elizabeth Taylor kolleksiysi" savdosida Andy Warhol tomonidan chizilgan $4\frac{1}{2} \times 6\frac{1}{2}$ dyuymli eskiz – unda ikki juft lab tasvirlangan va "Elizabeth... katta bo'sa. Andy Warhol" degan yozuv bilan imzolangan – dastlab 8,000 dollarga baholangan bo'lsa-da, oxir-oqibatda 242,500 dollarga sotilgan. Garchi asarning provenansi "Ijodkorning sovg'asi" deb qisqacha ko'rsatilgan bo'lsa ham, u mashhur shaxsga tegishli bo'lgani sababli bahosi 3000 foizdan ko'proqqa oshgan.

Hozirgi kunda provenansni o'rganish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar san'at asarlarining kelib chiqish tarixini aniqlashda foydalana oladigan keng va tobora rivojlanib borayotgan manba'lar majmuasiga ega. Jumladan, Getty Research Institute tomonidan taqdim etilgan turli ma'lumotlar bazalari, ayniqsa chuqur tadqiqot olib borayotgan provenans mutaxassislar uchun mo'ljallangan. Ko'rgazma kataloglari, catalogue raisonné, auktsion kataloglari hamda ixtisoslashtirilgan ma'lumotlar bazalari – bularning barchasi provenans bilan bog'liq izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar uchun nihoyatda muhim axborot manbalaridir.

Provenansni o'rganish vositalarini batafsil ko'rib chiqishdan avval, ushbu mavzuning san'at asarining monetar (bozor) qiymatiga ta'siriga oid ilmiy adabiyotlarga qisqacha nazar tashlash maqsadga muvofiqdir.

Masalan, tadqiqotchi Leena Fritzke o'zining "Qaydlar va san'at qiymati" nomli ishida [1] provenansga oid hujjatlarning asarning bozor qiymatiga ta'sirini batafsil tahlil qiladi. U provenans hujjatlarini san'at asarining haqiqiyligini hech bo'Imaganda qisman tasdiqlovchi omil sifatida ko'rsatib, shuningdek, avvalgi nufuzli egalar bilan bog'liq "assotsiativ qiymat"ga alohida urg'u beradi.

Yana bir muhim manba — Shitanishi Alexa N. tomonidan yozilgan "Provenans ta'siri: mulk huquqining san'at asarining qiymatiga ta'sirini tahlil qilish" [2] nomli tadqiqotdir. Ushbu ishda muallif intervyular va professional baholovchilarning fikrlariga asoslangan so'rovnomalar orqali mashhur shaxslar yoki taniqli kolleksionerlarga tegishli bo'lgan asarlarning assotsiativ qiymati qanday shakllanishini o'rganadi.

San'at savdosi faoliyati ko'pincha "soya iqtisodiyoti" deb ataladigan, rasmiy bozor tashqarisidagi murakkab muhitda amalga oshiriladi. Bu holatda san'at asarining kelib chiqish tarixi (provenans) va uning haqiqiyligi masalalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lishi mumkin. Agar biror asar tasodifan yerto'la, omborxona yoki boshqa noma'lum joydan "kutilmaganda" topilsa, bu holat kolleksionerlar, dilerlar va boshqa san'at bozori ishtirokchilari orasida shubha uyug'otadi[3].

Bunga qo'shimcha ravishda, soxta san'at asarlarini ishlab chiqarishda tajribaga ega bo'lgan firibgarlar ko'pincha faqat asarning o'zini emas, balki unga doir soxta hujjatlarni — masalan, shartnomalar, galereya yorliqlari va boshqa "isbotlovchi" materiallarni ham tayyorlashadi. Darhaqiqat, bunday hujjatlarni yaratish ko'pincha san'at asarining o'zini qalbakilashtirishdan ancha osonroq va kamroq xarajatli bo'ladi.

Hozirgi kunda provenansni o'rganish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar san'at asarlarining kelib chiqish tarixini aniqlashda foydalana oladigan keng va tobora rivojlanib borayotgan manba'lар majmuasiga ega. Jumladan, Getty Research Institute tomonidan taqdim etilgan turli ma'lumotlar bazalari, ayniqsa chuqur tadqiqot olib borayotgan provenans mutaxassislari uchun mo'ljallangan. Ko'rgazma kataloglari, catalogue raisonné, auktsion kataloglari, muzey arxivlari hamda raqamlashtirilgan san'at kolleksiyalari – bularning barchasi provenans bilan bog'liq izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar uchun nihoyatda muhim axborot manbalaridir.

Zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalari, provenans izlanishlariga yangi imkoniyatlar ochmoqda. Masalan, ba'zi san'at texnologiyasi startaplari asar haqidagi barcha o'tmishdagi egalar, ko'rgazmalar va auktsionlar haqidagi ma'lumotlarni blokcheynga joylashtirib, uni o'zgartirish va soxtalashtirishdan himoya qilishga harakat qilmoqda. Bu esa ishonchli va shaffof san'at bozori uchun muhim qadamdir[4].

Shuningdek, UNESCO va ICOM (Xalqaro muzeylar kengashi) kabi tashkilotlar tomonidan noqonuniy olib chiqilgan yoki o'g'irlangan san'at asarlarini qaytarishga doir global ma'lumotlar bazalari shakllantirilgan. Bu bazalar, xususan, urush va mustamlaka davrida o'g'irlangan artefaktlarning provenansini aniqlashda foydalidir.

Provenansni o'rganish vositalarini bat afsil ko'rib chiqishdan avval, ushbu mavzuning san'at asarining monetar (bozor) qiymatiga ta'siriga oid ilmiy adabiyotlarga qisqacha nazar tashlash maqsadga muvofiqli.

Masalan, tadqiqotchi Leena Fritzke o'zining "Qaydlar va san'at qiymati" nomli ishida [69] provenansga oid hujjalarning asarning bozor qiymatiga ta'sirini bat afsil tahlil qiladi. U provenans hujjalarini san'at asarining haqiqiyligini hech bo'lmaganda qisman tasdiqlovchi omil sifatida ko'rsatib, shuningdek, avvalgi nufuzli egalar bilan bog'liq "assotsiativ qiymat"ga alohida urg'u beradi.

Yana bir muhim manba — Shitanishi Alexa N. tomonidan yozilgan "Provenans ta'siri: mulk huquqining san'at asarining qiymatiga ta'sirini tahlil qilish" [2] nomli tadqiqotdir. Ushbu ishda muallif intervyular va professional baholovchilarning fikrlariga asoslangan so'rovnomalar orqali mashhur shaxslar yoki taniqli kolleksionerlarga tegishli bo'lgan asarlarning assotsiativ qiymati qanday shakllanishini o'rganadi.

San'at savdosi faoliyati ko'pincha "soya iqtisodiyoti" deb ataladigan, rasmiy bozor tashqarisidagi murakkab muhitda amalga oshiriladi. Bu holatda san'at asarining kelib chiqish tarixi (provenans) va uning haqiqiyligi masalalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lishi mumkin. Agar biror asar tasodifan yerto'la, omborxona yoki boshqa noma'lum joydan "kutilmaganda" topilsa, bu holat kolleksionerlar, dilerlar va boshqa san'at bozori ishtiroychilari orasida shubha uyg'otadi.

Bunga qo'shimcha ravishda, soxta san'at asarlarini ishlab chiqarishda tajribaga ega bo'lgan firibgarlar ko'pincha faqat asarning o'zini emas, balki unga doir soxta hujjalarni — masalan, shartnomalar, galereya yorliqlari va boshqa "isbotlovchi" materiallarni ham tayyorlashadi. Darhaqiqat, bunday hujjalarni yaratish ko'pincha san'at asarining o'zini qalbakilashtirishdan ancha osonroq va kamroq xarajatlari bo'ladi. Ayniqsa, so'nggi yillarda AI yordamida yaratilgan vizual nusxalar va hujjalarni haqiqiy hujjalardan deyarli farq qilmaydi, bu esa san'at bozorida xavfni yanada oshiradi[5].

Hozirgi davr san'atshunoslik tadqiqotlari, xususan san'at asarlarining provenansini (kelib chiqishini) o'rganishga qaratilgan izlanishlar, keng va boy manba bazasiga tayangan holda olib borilmoqda. Zamonaviy tadqiqotchilar shaxsiy va institutsional arxivlar tomonidan taqdim etilgan resurslardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega. San'at asarining tarixiy egalar zanjirini aniqlash jarayonida arxiv kolleksiyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, rassomlarning shaxsiy eslatmalari, xatlari, shuningdek, san'at dilerlari va galereyalar tomonidan yuritilgan yozuvlar tadqiqotchilar va kolleksionerlar uchun muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Ilgari, ushbu materiallarga faqat qog'oz shaklida va cheklangan sharoitlarda murojaat qilish mumkin bo'lgan bo'lsa, hozirgi elektron davrda tadqiqotchilar ko'plab arxiv hujjalariiga

tezkor va qulay shaklda kirish imkoniga egadirlar. Bu boradagi zamonaviy vositalar va platformalar provenans tadqiqotlarini ancha soddalashtirdi va ommaviylashtirdi[3]. Quyida san'at asarlari provenansini o'rganishda foydalanilishi mumkin bo'lgan asosiy arxiv resurslari keltirilgan:

ArchiveGrid (Online Computer Library Center): <http://ArchiveGrid.org>

Bu platforma dunyo bo'ylab tarqalgan arxiv kolleksiyalarini birlashtirgan ochiq ma'lumotlar bazasi bo'lib, tadqiqotchilarga kerakli hujjatlarni topishda ko'maklashadi.

Archive Finder (ProQuest):

AQSh va Buyuk Britaniyadagi arxiv kolleksiyalarining katalogi bo'lib, unda san'at asarlari bilan bog'liq materiallar haqida bat afsil ma'lumotlar taqdim etiladi.

Archives of American Art: <http://www.aaa.si.edu/collections/topic>

Amerika san'ati arxivlari tomonidan yuritiladigan ushbu platformada san'at tarixiga oid juda keng ko'lardagi hujjatlar to'plangan bo'lib, ular orasida rassomlar, dilerlar va kolleksionerlarning yozishmalari, ish jurnallari, shaxsiy arxivlari mavjud.

International Foundation for Art Research (IFAR) – Provenance Guide: www.ifar.org/provenance_guide

Ushbu platforma yangi boshlayotgan tadqiqotchilar uchun provenansni o'rganishga oid qisqacha, tushunarli va amaliy qo'llanmani taklif etadi.

Smithsonian Institution Research Information System (SIRIS): <http://www.siris.si.edu>

Smitson instituti tomonidan yaratilgan ushbu ilmiy axborot tizimi san'at ob'yektlari bilan bog'liq bo'lgan tarixiy va ilmiy hujjatlarni izlash uchun muhim manba hisoblanadi.

Zamonaviy raqamli vositalarning kengayishi va ochiq ma'lumotlar siyosatining rivojlanishi bilan provenans tadqiqotlari yanada ishonchli, shaffof va keng qamrovli tus olmoqda. Bu esa nafaqat san'at tarixchilari, balki kolleksionerlar, muzey xodimlari va san'at bozori ishtirokchilari uchun ham alohida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Auktsion sotuvlar kataloglari va tegishli ma'lumotlar bazalari san'at asarlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu manbalar orqali alohida lotlarni izlash, ularning tarixi — ya'ni provenansini aniqlash va tahlil qilish imkoniyati mavjud. Bunday kataloglar san'at asarining kimga tegishli bo'lganini, qachon va qayerda sotilganini aniqlashda yordam beradi. Biroq, ushbu manbalardan foydalanishda bir muhim jihatni inobatga olish kerak: san'at asarlarining nomlari turli manbalarda farq qilishi mumkin. Bu esa ularni izlashni murakkablashtiradi, chunki san'at asarlari odatda ilmiy adabiyotlardagi kitob yoki maqola sarlavhalari kabi standartlashtirilmagan bo'ladi. Ayniqsa, agar asar mashhur rassomga tegishli bo'lsa, izlashda uning nomi o'rniqa rassomning ismini asosiy kalit so'z sifatida ishlatish maqsadga muvofiqli. Bu usul orqali asarni aniqlash ehtimoli sezilarli darajada oshadi.

San'at asarining provenansi – ya'ni uning kelib chiqishi tarixi – bugungi global san'at bozorida nafaqat estetik va tarixiy, balki yuridik va molivayi jihatdan ham nihoyatda muhim omilga aylangan. Har yili milliardlab dollarlik san'at asarlari aylanmasi fonida, ularning haqiqiyligini aniqlash, huquqiy maqomini belgilash va bozor qiymatini asoslashda to'liq va ishonchli provenans ma'lumotlari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mashhur kolleksiyaga mansublik, avvalgi egalarning obro'si yoki ishonchli dilerlar orqali o'tgan mulkchilik tarixi san'at asarining narxini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Ammo bu jarayon muammolardan xoli emas: qalbakilashtirilgan hujjatlar, noma'lum davrlar va soxta egalik zanjirlari san'at bozorida ko'plab xavf-xatarlarni yuzaga keltiradi. Shu sababli, zamonaviy san'atshunoslik tadqiqotlari va bozor amaliyotida provenansni o'rganish mutaxassisligi tobora alohida yo'nalish sifatida shakllanmoqda. Getty Research Institute, IFAR, Smithsonian kabi nufuzli tashkilotlar tomonidan taqdim etilayotgan raqamli arxivlar, kataloglar va ma'lumotlar bazalari bu yo'nalishda tadqiqotchilar uchun bebahol resurslarga aylangan.

Shuningdek, sun'iy intellekt, blokcheyn texnologiyalari va raqamli hujjatlashtirish vositalari orqali provenans izlanishlarining aniqligi, shaffofligi va ishonchliligi oshmoqda. Bu esa san'at bozorining barqarorligini ta'minlash, firibgarlik holatlarini kamaytirish va madaniy merosni saqlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Natijada, san'at asarining provenansini chuqur o'rganish – bu faqat ilmiy yoki estetik qiziqish emas, balki iqtisodiy, huquqiy va axloqiy mas'uliyatni ham o'z ichiga olgan muhim jarayondir. Shu bois, ushbu sohaga oid izlanishlarni chuqurlashtirish va unga zamonaviy vositalarni joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro`yxati:

1. Fritzke, Leena. "An Examination of the Impact of Records on the Value of Artworks." Records Management Journal vol. 18, no. 3, 2008. Pp. 221–235.
2. Shitanishi, Alexa N. "The Provenance Effect: An Analysis of the Effect of Ownership on the Value of Art." Journal of Advanced Appraisal Studies [annual]. Chicago: Foundation for Appraisal Education, 2011. Pp. 33–72.
3. <http://www.aaa.si.edu/collections/topic>
4. U.Zunnunova, S. Zakirova. Classification Of Creative Industries In Uzbekistan. Natural Volatiles & Essential Oils, 8, 4, 15296-15302.
5. U. Zunnunova, T.Fayziev. Art marketing. O'quv qo'llanma. "Kamalak" nashriyoti, Toshkent, 2019- 290 b.